


## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-oktabr)


Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 104 846,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 14 023,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 24,4 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 90 823,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 12 837,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 %ga kamaygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2017 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Jizzax, Buxoro, Xorazm, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahrida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`rgan yilning mos davriga nisbatan 24,4 %ga o`tdi va 14 023,5 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,4 % ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 90 823,1 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-oktabroylariga nisbatan 2,7 %ga o`tdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,6 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2017 yil  
yanvar-oktabr




2018 yil  
yanvar-oktabr



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Sirdaryo (93,5%), Surxondaryo (92,0%), Navoiy (91,9%), Jizzax (91,7%), Qashqadaryo (91,4) va Namangan (91,4) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (23,9%), Xorazm (18,9%) va Buxoro (12,1%) viloyatlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>O`zbekiston Respublikasi</b>	<b>14 023,5</b>	<b>124,4</b>	<b>90 823,1</b>	<b>102,7</b>
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	366,6	137,9	3 021,6	102,8
<i>viloyatlar:</i>				
<b>Andijon</b>	876,4	144,0	7 400,3	102,0
<b>Buxoro</b>	781,0	147,2	5 693,2	102,5
<b>Jizzax</b>	293,2	165,1	3 244,8	103,7
<b>Qashqadaryo</b>	596,6	132,4	6 345,3	100,9
<b>Navoiy</b>	346,7	162,8	3 925,6	102,6
<b>Namangan</b>	541,6	104,5	5 781,2	103,8
<b>Samarqand</b>	832,3	146,2	8 044,1	102,7
<b>Surxondaryo</b>	545,9	108,5	6 317,0	103,8
<b>Sirdaryo</b>	117,9	88,8	1 684,2	104,5
<b>Toshkent</b>	1283,6	108,3	9 906,7	102,9
<b>Farg`ona</b>	1003,2	139,6	8 157,4	101,6
<b>Xorazm</b>	754,1	165,2	3 233,6	100,2
<b>Toshkent sh.</b>	5684,4	114,4	18 068,1	103,7

### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2018 yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 3 189,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Toshkent shahri (9572,2 ming.so'm), Navoiy (4432,3 ming. so'm) va Toshkent (3892,7 ming.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (1829,8 ming.so'm), Xorazm (2197,0 ming.so'm) va Qashqadaryo (2188,6 ming so'm) viloyatlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>O`zbekiston Respublikasi</b>	<b>3 189,6</b>	<b>103,4</b>
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 829,8	104,2
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 730,6	103,5
Buxoro	3 442,7	104,8
Jizzax	2 650,4	105,1
Qashqadaryo	2 188,6	101,0
Navoiy	4 432,3	104,1
Namangan	2 325,7	102,0
Samarqand	2 367,7	103,6
Surxondaryo	2 708,0	102,0
Sirdaryo	2 195,3	101,6
Toshkent	3 892,7	102,3
Farg`ona	2 514,6	103,1
Xorazm	2 197,0	106,5
Toshkent sh.	9 572,2	104,3

Jumladan, 2018 yilning yanvar-oktabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 %ni tashkil etib, 2 920,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 85,6 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-oktabr)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 43 761,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 5,7 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, 28 754,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 65,7 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslaganda, Toshkent shahrida (79,7%), Farg'ona (71,6%) va Samarqand (70,2%) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 34,3 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Navoiy (68,6%), Toshkent (63,3%) va Jizzax (54,3%) viloyatlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>O`zbekiston Respublikasi</b>	<b>43 761,0</b>	<b>105,7</b>	<b>15 006,3</b>	<b>112,6</b>	<b>28 754,7</b>	<b>102,5</b>
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	937,4	103,7	390,3	97,1	547,1	108,9
<i>viloyatlar:</i>						
<b>Andijon</b>	1 441,5	111,4	628,0	112,5	813,5	110,5
<b>Buxoro</b>	1 670,2	102,3	598,6	91,1	1 071,6	109,9
<b>Jizzax</b>	1 008,5	141,6	547,9	2,7 b.	460,6	90,3
<b>Qashqadaryo</b>	1 821,2	96,9	924,9	93,8	896,3	100,4
<b>Navoiy</b>	1 368,3	196,6	938,1	3,5 b.	430,2	100,2
<b>Namangan</b>	1 630,1	107,9	663,0	128,2	967,1	97,3
<b>Samarqand</b>	3 216,2	100,4	958,1	99,4	2 258,1	100,9
<b>Surxondaryo</b>	1 702,1	108,9	642,8	117,5	1 059,3	104,2
<b>Sirdaryo</b>	951,2	103,2	421,6	99,3	529,6	106,6
<b>Toshkent</b>	4 961,9	111,8	3 141,8	114,3	1 820,1	107,8
<b>Farg`ona</b>	2 500,2	103,0	709,3	107,9	1 790,9	101,1
<b>Xorazm</b>	1 023,8	112,6	476,1	130,8	547,7	100,4
<b>Toshkent sh.</b>	19 528,4	100,8	3 965,8	98,1	15 562,6	101,5



### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududa o'sish sur'atida kamayishi kuzatildi: Qashqadaryo viloyati-96,9 %.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.:71-230-80-42 (43)